

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2022

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.Shernazarov, X.Jamolova</b>	
“BOBURNOMA”ning forscha misralari .....	91
<b>S.Halimov</b>	
E.A.Poning hikoyalarida ijtimoiy davr va falsafiy mushohadakorlik dialektikasi .....	95
	TILSHUNOSLIK
<b>Z.Akbarova, M.Buvajonova</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun elektron o'quv lug'atlarini yaratishning zarurati xususida.....	100
<b>G.Davlyatova</b>	
Ritorikani (notiqlik) nutq san'ati sifatida o'rganish.....	103
<b>B.To'rayeva</b>	
Xronotop poetikasining o'ziga xos xususiyatlari .....	107
<b>Z.Alimova, S.Gafurova</b>	
“SADOI TURKISTON” gazetasi va undagi bir maqola xususida .....	114
<b>G.Raximova</b>	
Ingliz reduplikativ elementlarning funksional semantikasiga oid lingvistik qarashlar .....	120
<b>J.Ibragimov</b>	
Jahon tilshunosligida <i>collocation</i> atamasi va uning tadqiqi .....	123
<b>N.Xasanboyeva</b>	
Zamonaviy fransuz tilida so'roq gaplar semantikasi va funksional xususiyatlari .....	127
<b>D.Ganiyeva, D.Ismoilova</b>	
Struktur tilshunoslikning nazariy asoslari .....	130
<b>M.Qurbonova</b>	
O'zbek tilshunosligida okkazonal birliklar tadqiqi .....	134
<b>L.Masharipova</b>	
Til va madaniyat .....	139
<b>Sh.Jumaqulova</b>	
O'zbek tilida “xursandchilik” etimonlari qo'llanilgan frazeologik birliklar ifodalanishi .....	144
<b>X.Maripova</b>	
Nemis tilidagi harbiy frazeologik birliklarining sotsiopragmatik xususiyatlari .....	147
<b>A.Mattiyev</b>	
Ravish tasnifiga doir yondashuvlar .....	151
<b>A.Yuldashev</b>	
So'z ma'nosi xususida.....	154
<b>D.Gaziyeva</b>	
Funksional va stilistik jihatdan media tili .....	159
<b>U.Yokubbayeva</b>	
“Yangi O'zbekiston strategiyasi” kitobida qo'llangan “ <i>yashil</i> ” leksemasining semantik takomili.....	164
<b>N.Umarova, M.Abdulimova</b>	
Alisher Navoiy she'riyatida o'xshatish qurilmalari .....	170
	MATEMATIKA
<b>A.Xasanov, I.Jalilov</b>	
$F_{0;3;3}^{2;2;2} [x, y]$ gipergeometrik funksiya uchun integral ko'rinishlar va bu funksiyaning qanoatlantiruvchi gipergeometrik tipdagi differensial tenglamalar sistemasi .....	173
<b>D.Usmonov, A.Urinov</b>	
Soha chegarasining barcha qismida buziladigan to'rtinchi tartibli tenglama uchun chegaraviy masalalar .....	185
	FIZIKA – TEXNIKA
<b>M.Maxmudova, Sh.Shuxratov</b>	
Frezer stanoklarida metallarga ishlov berish texnologiyalari va uning innovatsion usulda o'qitilishi.....	193

**NEMIS TILIDAGI HARBIY FRAZEOLOGIK BIRLIKLARINING  
SOTSIOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI**

**СОЦИОПРАГМАТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ВОЕННЫХ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ  
ЕДИНИЦ В НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКЕ**

**SOCIOPRAGMATIC CHARACTERISTICS OF MILITARY PHRASEOLOGICAL UNITS IN  
GERMAN LANGUAGE**

**Maripova Xurshidaxon Muzafarjonovna<sup>1</sup>**

**Maripova Xurshidaxon Muzafarjonovna<sup>1</sup>**

– Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi tayanch doktoranti (PhD), Farg'ona davlat universiteti

**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada nemis tilidagi harbiy frazeologik birliklarning sotsiopragmatik xususiyatlari tahlil qilindi. Harbiy iboralar tuzilishiga ko'ra so'z birikmasi va gapga tengdir. Harbiy iboralar shakl va mazmun jixatidan lisoniy birlik sifatida hamda ijobiy, salbiy, neytral va baholash munosabatidagi guruhlariga ajratildi. So'zlashuv nutqi uslubiga xos baholash munosabatini ifodalovchi frazeologik birliklarda soddalik, ta'sirchanlik, ko'tarinkilik, ulug'vorlik, erkinlik aniqlandi. Harbiy frazeologik birliklar ma'noni kuchli, obrazli, emotsional-ekspressiv ifodalovchi til birligi bo'lib, ulardagi konnotatsiyani anglash uchun frazeologik birliklar ma'nosini unga ma'nodosh bo'lgan so'z semantikasi bilan qiyoslandi. Shuningdek, harbiy frazeologik birliklarning pragmatik funksiyalari ko'rsatilib, misollarda yoritildi.*

**Аннотация**

*В данной статье проанализированы социально-прагматические особенности воинских фразеологизмов в немецком языке. По структуре военные словосочетания равнозначны словосочетанию и предложению. Воинские выражения были разделены на группы положительного, отрицательного, нейтрального и оценочного отношения по форме и содержанию как языковая единица. Во фразеологизмах, выражающих характерную для стиля разговорной речи оценочную установку, выявлены простота, внушительность, приподнятость, великолепие, свобода. Воинские фразеологизмы - это языковые единицы, выражающие сильное, образное, эмоционально-экспрессивное значение, и для понимания их коннотации значение фразеологизмов сопоставлялось с семантикой соответствующих слов. Также показаны и проиллюстрированы на примерах прагматические функции военных фразеологизмов.*

**Abstract**

*This article analyzed the sociopragmatic features of military phraseological units in the German language. According to the structure of military phrases, they are equivalent to a phrase and a sentence. Military expressions were divided into groups of positive, negative, neutral and evaluative relations in terms of form and content as a linguistic unit. Simplicity, impressiveness, elation, magnificence, freedom were identified in the phraseological units expressing the evaluation attitude specific to the style of colloquial speech. Military phraseological units are language units that express a strong, figurative, emotional-expressive meaning, and in order to understand their connotation, the meaning of phraseological units was compared with the semantics of the corresponding words. Also, the pragmatic functions of military phraseological units are shown and illustrated in examples.*

**Kalit so'zlar:** iboralar, so'zlashuv nutqi, harbiy frazeologik birliklar, pragmatik, so'zma-so'z, nutq, til, ma'no.

**Ключевые слова:** словосочетания, разговорная речь, военные фразеологизмы, прагматика, дословность, речь, язык, значение.

**Key words:** phrases, colloquial speech, military phraseological units, pragmatic, verbatim, speech, language, meaning.

**KIRISH**

Ma'lumki, so'zlashuv nutqi yozma nutqqa qaraganda ta'sirchanligi, hissiyotga boyligi, yangi so'z qo'lashlar mavjudligi bilan ajralib turadi. Bu uslubda so'zlovchining barcha imkoniyatlari namoyon bo'ladi. U nutqiga hissiyotini ham qo'shib gapiradi, bunda turli imo-ishoralar, qo'l va tana a'zolari harakatlaridan foydalaniladi. Bu vositalar nutqda aytilmay qolishi mumkin bo'lgan so'z va iboralarning o'rnini to'ldiradi hamda bayon qilinayotgan fikrni yanada aniqlashtiradi. So'zlashuv uslubi uchun nutqning dialogik shaklda bo'lishi, so'zlarning ko'chma ma'noda qo'llanilishi, mazkur uslubga xos bo'lgan har xil takrorlar, intonatsion vositalar (gumon, ishonch, piching, hazil)ning ko'proq bo'lishi, so'zlovchi his-tuyg'ularidan, munosabatidan kelib chiqadigan emotsional-

ekspressivlikning mavjudligi, nutqiy muloqotga xos situatsiya, yuzma-yuzlik, hazil-mutoyiba elementlarining ko'proq bo'lishi, haqorat, maqtov, kichrayturuv, oddiy muomalaga oid so'zlarning ko'proq bo'lishidir. Uslubiy bo'yog'i bilan ajralib turadigan lug'aviy birliklar so'zlashuv nutqining asosiy qatlamini tashkil etadi. Ularda ta'sirchanlik, erkinlik, vaziyatboplik sezilib turadi. Tilning asosiy funksiyalaridan biri ekspressivlikni ifodalash so'zlashuv nutqida alohida ahamiyatga ega. Chunki so'zlashuv nutqi jonli nutq bo'lib, so'zlovchi va tinglovchi munosabati muhim o'rin egallaydi. So'zlashuv nutqida tilning pragmatik xususiyatlari to'la namoyon bo'ladi. Pragmatika tilning nutqiy vaziyatlar bilan bog'liq xususiyati bo'lib, nutq sub'ekti, nutq ob'ekti tushunchalari muhim o'rin egallaydi. Nutq ob'ekti ijobiy yoki salbiy xususiyatlarini so'zlovchi munosabati bilan uyg'unlikda ta'sirli ifodalashda, so'zlashuv nutqida emotsional-ekspressivlikni oshirishda frazeologik birliklarning alohida o'rni bor.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Nemis tilining boy lingvistik imkoniyatlarini ko'rsatuvchi vositalardan biri frazeologizmlardir. "Frazeologiya" atamasini birinchi marta Charlz Balli (1905) kiritgan. Biroq, u frazeologiyani mustaqil kichik fan sifatida emas, balki stilistikaning kichik sohasi sifatida ko'rgan. 1940-yillarda Sovet Ittifoqida frazeologiya Charlz Balli g'oyalarini o'z zimmasiga olgan va yanada rivojlantirgan tilshunos V.V.Vinogradov nomi bilan bog'langan. Shundan so'ng rus tilida ko'plab ilmiy ishlar yozilib, german tilshunosligiga kuchli ta'sir ko'rsatdi (E.D. Polivanov, G.O. Vinokur, S.I. Abakumov, A.A. Bulaxovskiy) [4].

Harbiy frazeologik birliklar esa bir qator mualliflar (V.M. Mokienko, Sh.I. Vasilev, L.N. Venediktova, I.V. Dukalskaya va boshqalar) asarlarida diqqat markazida bo'lgan. Nemis tili harbiy frazeologiyasi harbiy-tarixiy voqealar, harbiy-siyosiy munosabatlar va harbiy ishlarning rivojlanishi bilan bog'liq frazeologik birliklarni o'z ichiga oladi. Nemis tilidagi harbiy frazeologik birliklar guruhiga harbiylarning nutqi, tarixiy shaxslarning (asosan harbiy) bayonotlaridan kelib chiqqan frazeologik birliklar kiradi. Harbiy frazeologik birliklar qatlami harbiy san'at evolyutsiyasida muhim o'rin egallagan o'rta asrlardagi musobaqa shaklidagi turnirlar va qilichbozlik hisoblangan. O'rta asrlarda g'arbiy Yevropada ritsarlarning harbiy musobaqalari bo'lib, ularning maqsadi feodal qo'shinlarining asosini tashkil etgan jangovar fazilatlarini ko'rsatishdan iborat bo'lgan [4].

### NATIJA VA UNING MUHOKAMASI

Harbiy iboralar tuzilishiga ko'ra so'z birikmasiga, gapga teng, semantik jihatdan bir butun, umumlashgan ma'no anglatadigan birlikdir.

Nemis tilidagi harbiy iboralar uch ming yoshga ega. U o'zining tarixiy, hissiy komponentiga ega bo'lib, katta to'qnashuvlar masalan, o'ttiz yillik urush, 1800 atrofidagi ko'plab mojarolar, Frantsiya va Germaniya tarixi, Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari juda ko'p harbiy asosli iboralarni olib kelgan. Bunday urushlarning kundalik hayotga ta'siri shunchalik katta ediki, ular harbiy askarlarning iboralarini o'zlashtirganlar va og'zaki nutqqa olib kelganlar.

Harbiy iboralar ham shakl va mazmun jihatidan lisoniy birlik sifatida uch yo'nalishida o'rganiladi:

- a) struktur jihatdan (harbiy frazeologik birlikning qurilish xususiyatlari);
- b) semantik jihatdan (harbiy frazeologik birlikning lug'aviy ma'nosi);
- v) funktsional jihatdan (harbiy frazeologik birlikning lison va nutq strukturasi tutgan o'rni).

Harbiy frazeologik birliklar nemis tilida tashqi ko'rinishi jihatidan so'z birikmasi va gap ko'rinishida bo'ladi. So'z birikmasi ko'rinishidagi frazeologik birliklar:

- *jm die Waffe aus der Hand schlagen*, kimnidir yiqitmoq;
- *jn mit seiner eigenen Waffe schlagen*, so'zma-so'z, kimnidir shaxsiy quroli bilan urmoq;
- *zur Waffe greifen / zu den Waffen greifen*, qurolni qo'lga olmoq, urush boshlamoq;
- *die Waffen stecken*, taslim bo'lmoq;
- *in Waffen sein*, qurollanmoq;
- *mit den Waffen klirren*, urush tahdid qilmoq.

Harbiy frazeologik birliklar, asosan, belgi va harakat ifodalaydi. Shuning uchun ularning aksariyati grammatik jihatdan belgi va harakat bildiruvchi so'z turkumlariga mansub.

Frazeologik birliklarning ayrimlari gap tipida bo'ladi:

- *Wer das Schwert nimmt, soll durch das Schwert umkommen*, so'zma-so'z, qilich olganlar qilichdan o'ladilar;

## TILSHUNOSLIK

- *Hast du einen Dolch, so hab ich einen Degen*, soʻzma-soʻz, senda qilich boʻlsa, menda xanjar bor.

Nemis tilshunosligida frazeologik birliklarning tabiati va hosil boʻlish usullari, frazeologik maʼno tabiati, frazeologik omonimiya, sinonimiya, antonimiya, variantdoshlik kabi hodisalar, frazeologik birliklarning morfologik strukturasi va paradigmaticasi, gap tarkibidagi vazifasi, badiiy va publitsistik uslub frazeologiyasi kabi masalalar tahlil qilib kelinmoqda. Harbiy frazeologik birliklarning antropotsentriзм nuqtai nazaridan yondashish, bunday iboralarning pragmatik funktsiyalari va nutqiy muloqot jarayonidagi ahamiyatini yoritish ham dolzarb masalalardan sanaladi.

Harbiy frazeologik birliklarning asosiy qismi shaxsga xos xarakter-xususiyat, harakat, holatni ifodalashga xizmat qiladi. Chunki ijtimoiy hayotning, nutqiy muloqotning markazida harbiy submadaniyat vakili va ular oʻrtasidagi munosabatlar turadi. Masalan, nemis harbiy soʻzlashuv nutqida kukun (porox) leksemasi bilan shakllangan quyidagi frazalar mavjud:

- *er hat das Pulver nicht erfunden*, unchalik fahm-farosati yoʻq; hech baloga aqli yetmaydigan odam;

- *Pulver gerochen haben*, urushda boʻlmoq, jang qilmoq;

- *kein Pulver riechen können*, qoʻrqqoqlik qilmoq (soldatga nisbatan);

- *(all) sein Pulver verschlossen haben*, barcha dalillarni keltirib bermoq; hamma gaplarni gapirib boʻlmoq; soʻzma-soʻz, oʻzining barcha kukunlarini otib boʻlmoq;

- *kein Schuß Pulver wert sein*, bir tiyinga arzimaydi;

- *jn zu Pulver und Blei verurteilen*, kimnidir otishga hukm qilmoq;

Bundan tashqari, harbiy submadaniyat vakili munosabatlarni ifodalovchi ijobiy, salbiy hamda neytral harbiy frazeologik birliklarga boʻlinadi:

a) ijobiy munosabat ifodalovchi harbiy frazeologik birliklarlar: *noch (von) der alten Garde sein*, soʻzma-soʻz, eski qoʻriqchidan boʻlmoq; *Das ist einer der alten Garde*, soʻzma-soʻz, bu eski soqchilardan biri kabi.

b) salbiy munosabat ifodalovchi harbiy frazeologik birliklarlar: *ein böses Maul ist schärfer als sein Schwert*, soʻzma-soʻz, yomon ogʻiz qilichdan oʻtkirroq; *kein schärfer Schwert als böse Zunge*, soʻzma-soʻz, hech qanday qilich yomon tigʻ kabi oʻtkir emas; *scharfe Schwerter schneiden sehr, scharfe Zungen noch viel mehr*, soʻzma-soʻz, oʻtkir qilichlar qattiq sanchiladi, lekin oʻtkir tillar ancha kuchli sanchiladi; *Wörter sind (keine) Schwerter*, soʻzma-soʻz, soʻzlar-qilich (emas); *ein Stich mit der Zunge ist gefährlicher als ein Stich mit der Lanze*, soʻzma-soʻz til bilan sanchish nayza sanchishdan ham xavfliroqdir; *kein Speiß macht solche Wund als gifte Zung und böser Mund*, soʻzma-soʻz, hech qanday nayza zaharli til va yomon ogʻiz kabi jarohat keltirmaydi kabi.

s) neytral munosabat ifodalovchi harbiy frazeologik birliklarlar: *Seine Stellung behaupten* – nuqtai nazarini chetga surmoqda.

Nemis tilida neytral harbiy frazeologik birliklar funktsional jihatdan biron bir uslubga birlashtirilmagan.

Harbiy frazeologik birliklarning pragmatik funktsiyalari quyidagilarda koʻrinadi:

1. Soʻzlovchining tinglovchiga ijobiy yoki salbiy munosabatini taʼsirli ifodalash.

2. Soʻzlovchining nutq obyektiga munosabatini taʼsirchan ifodalash.

3. Nutqning uslubiy boʻyoqdorligini oshirish.

Soʻzlashuv nutqi frazeologik birliklari oʻzining obrazlilik, taʼsirchanligi, hamma uchun tushunarlilik va jonlilik bilan xarakterlanadi. Harbiy frazeologik birliklar maʼnoni kuchli, obrazli, emotsional-ekspressiv ifodalovchi til birligidir, shu sababli ulardagi konnotatsiyani anglash uchun frazeologik birliklar maʼnosini unga maʼnodosh soʻz semantikasi bilan qiyoslash zarur. Masalan, *das Visier lüften*, soʻzma-soʻz, ochiq visor bilan jang qilish iborasi halol soʻzi bilan maʼnodosh sanaladi. Frazeologik birlikdagi konnotatsiya faqat halollikni ifoda etuvchi maʼnonigina bildirib qolmasdan, shu bilan birga, halollikning yuksak darajada sodir boʻlganligini ham anglatadi. Bu frazeologik birlikning semantik tarkibida konnotatsiyaning emotsionallik va ekspressivlikdan tashqari baholov komponenti ham mavjudligini sezish mumkin. Chunki sodir boʻlgan voqea-hodisaga soʻzlovchining yoki tinglovchining ijobiy munosabatini ham bildiradi. Soʻzlashuv nutqi uslubidagi frazeologik birliklarni konnotativ va polisemantik maʼnolariga koʻra tasniflash lozim boʻladi.

So'zlashuv nutqi uslubiga xos baholash munosabatini ifodalovchi harbiy frazeologik birliklarda soddalik, ta'sirchanlik, ko'tarinkilik, ulug'vorlik, erkinlik sezilib turadi. Masalan; eine (wahre) Dreckscheuder sein – so'zlashuvda, haqorat va tuhmat tarqatuvchi; so'zma-so'z, shaharni qamal qilish paytida axloqsizlik qiladigan odam ma'nolarida so'zlashuv uslubiga xosdir. Chunki har bir frazeologik birlik biror predmet yoki hodisaning nomini atash bilan birga ijobiy va salbiy ma'nolarni ham ifodalaydi.

Harbiy frazeologik birliklarni baholash munosabatiga asosan ikki guruhga ajratish mumkin.

1. Ijobiy ma'no munosabatini ifodalovchi harbiy frazeologik birliklar. Bunday frazalarda so'zlovchining tinglovchiga bo'lgan ijobiy muomalasi, so'zlovchining zavq-shavqi ifodalanadi.

2. Salbiy ma'no munosabatini ifodalovchi harbiy frazeologik birliklar. Bunday iboralarda suhbatdoshning tinglovchiga nisbatan kinoyasi, dag'alligi, kamsitishi, kesatishi, nafrati, so'kishi, koyishi, kabi salbiy munosabati o'z ifodasini topadi.

### XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, harbiy jamiyatning til boyligi ham harbiy termin va harbiy frazeologik birliklarda ifodalanib, uslubiy va pragmatik imkoniyatlarini o'zida aks ettiradi. Shuningdek, harbiy frazeologik birliklar keng qamrovli hodisa bo'lib, til tizimida dunyo haqidagi g'oyalar yig'indisi hamda insonning o'zi haqidagi bilimlarni aks ettiradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Binovich L.E, Grishin N.N., Nemischa-ruscha frazeologik lug'at, M.: 1975. 95, 100, 168, 350, 396, 397, 420, 496, 501, 538 b. [Бинович Л.Э., Гришин Н.Н., Немецко-русский фразеологический словарь, М.: 1975. 95, 100, 168, 350, 396, 397, 420, 496, 501, 538 с.]
2. Evgenia Aleksandrovna Dobrova, Lingvistik nuqtai nazardan rang komponentli nemischa-ruscha frazeologizmlar/ Magistrlik ishi, Sankt Petersburg 2016, 6-10 b. [Evgenia Aleksandrovna Dobrova, Deutsche und russische Phraseologismen mit Farbkomponenten aus linguokultureller Sicht/ Masterarbeit, Sankt Petersburg 2016, S. 6-10.]
3. Ojegov S.I., Shvedova N.Yu., Rus tilining izohli lug'ati: 80 000 so'z va frazeologik iboralar/ Rossiya Fanlar akademiyasi. - 4-nashr, qo'shimcha. - M.: ООО «ИТИ Технологии», 2005. – 460, 944, b. [Ojegov S.I., Shvedova N.Yu., Толковый словарь русского языка: 80000 слов и фразеологических выражений/ Российская академия наук. - 4-е изд., доп. - М.: ООО «ИТИ Технологии», 2005. – 460, 944с.]
4. Rahmatullaev Sh., O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – T., 1978. – 465 b.
5. Sodiqova M., Qisqacha o'zbekcha-ruscha maqol-matallar lug'ati. – T.: O'qituvchi, 1993. – 259 b.
6. Umarxo'jaev M.I., Nazarov K.N., Nemischa-ruscha-o'zbekcha frazeologik lug'at, T- O'qituvchi – 1994.
7. Voynova L.A., Jukov V.P., Molotkov A.I., Fedorov A.I., Ruscha frazeologik lug'at, 1967, M.:1967, 284 b. [Войнова Л.А., Жуков В.П., Молотков А.И., Федоров А.И., Фразеологический словарь русского языка, 1967, М.:1967, 284 с.]
8. Yedlichko M. I., Rubinshteyn A.I., Deutsche Redensarten, M.: 1953, 1959. Решетов В.В., Русско-узбекский словарь, T.:1972. [Едличко М. И., Рубинштейн А.И., Deutsche Redensarten, M.: 1953, 1959.]
9. <https://www.dw.com/de/deutsche-redensarten-mit-militärischenhintergrund/a-52818839>